

**Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish
evaziga moliyalash shartnomasi (reversiv faktoring)
№ ??creditnumber??**

??creditnumber??
(tuzilgan shahar)

??creditnumber??
(sana)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnda «**Moliya agent**» deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi № _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi/BXO boshlig'i _____ bir tarafdin va _____ nomidan jamiyat ustavi/nizomi/ asosida (bundan buyon matnda «**Mijoz**» deb yuritiluvchi)harakat qiluvchi jamiyat rahbari/bosh direktori _____ ikkinchi tarafdin hamda _____ nomidan jamiyat ustavi/nizomi/ asosida (bundan buyon matnda «**Qarzdor**» deb yuritiluvchi) harakat qiluvchi jamiyat rahbari/bosh direktori _____ uchinchi tarafdin Fuqarolik kodeksining 749- va 354-moddalariga asosan ushbu Faktoring shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Ta'riflar

1.1 Ushbu Shartnomaning barcha matnlarida (kontekstdan kelib chiqib yoki boshqa ta'rif keltirilgan vaziyatlar bundan mustasno) ushbu bo'limda keltirilgan atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

1.1.1 **Faktoring summasi** – pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan jami summa.

1.1.2 **Moliya agentining haqi** – Tariflarda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda va shartlarda belgilanadigan Qarzdor tomonidan Moliya agentiga to'lanishi lozim bo'lgan pul summasi. Kontrakt yoki shartnoma bo'yicha kechiktirishning butun davri uchun moliyalash sanasidan boshlab hisoblanadi. Ushbu haq faktoring xizmatlari ko'rsatilganligi uchun to'lanadi.

1.1.3 **Moliyalash summasi** – boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining 100 foiziga teng summa.

1.1.4 **Faktoring (xizmati)** – Moliya agentining ushbu shartnomaga asosan Mijozning mavjud pul talabi(debitorlik qarzi)dan voz kechish evaziga moliyalashtirish xizmati.

1.1.5 **Qarzdor** – Mijoz tomonidan yetkazib berilgan mahsulot (ko'rsatgan xizmatlar, bajarish ishlar va b.) uchun to'lovni amalga oshirish kerak bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt.

1.1.6 **Mijoz** – Qarzdorga, u bilan tuzilgan Kontrakt yoki shartnoma doirasida tovarlarni (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) taqdim etishdan kelib chiqadigan Qarzdorga nisbatan talab qilish huquqiga ega bo'lgan tovarlarni (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) yetkazib beruvchi, faktoring xizmatiga qiziqish bildirgan yoki Moliya agentida faktoring xizmatida bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

1.1.7 **Regress huquqisiz** – faktoring to'lovlarini qaytarilishida barcha to'lov ushbu shartnomada ko'zda tutilgan istisnolardan tashqari Qarzdor tomonidan amalga oshiriladi.

1.1.8 **Kontrakt yoki shartnoma** – Mijozning mahsulot sotish (xizmat ko'rsatish va b.) bo'yicha tuzilgan va u bo'yicha Qarzdorqarzdorligi mavjud bo'lgan shartnoma.

2. Shartnoma predmeti

2.1 Mijoz va Qarzdor o'rtasida “___”_____ yilda tuzilgan _____-sonli _____ kontrakt/shartnoma bo'yicha Qarzdor tomonidan tan olingan va to'lanmagan to'lovni talab qilish huquqi Moliya agentiga o'tadi. Talab qilish huquqining Moliya agentiga o'tishi natijasida Moliya agenti mazkur bandda ko'rsatilgan kontrakt bo'yicha Mijozning o'rniga kreditor bo'ladi va Qarzdordan to'lovni amalga oshirishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu Shartnomaga muvofiq Pul talabnomalarini boshqa shaxs foydasiga voz kechish Moliya agentining

Mijozga regress talablarini qo'yish huquqsiz amalga oshiriladi.

2.2 Pul talabnomalaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan bir vaqtda, Moliya agentiga Kontraktidan kelib chiqadigan boshqa huquqlar, xususan, Qarzdorga nisbatan jarima sanksiyalarni qo'llash huquqi, Mijozga taqdim etilgan ta'minotga bo'lgan huquqlar, mumkin bo'lgan sug'urta talablari bo'yicha naf oluvchining huquqlari va boshqalar ham o'tkaziladi.

2.3 Faktoring xizmati _____) kun muddatga, ya'ni _____ 20__ yilga qadar ko'rsatiladi.

2.4 Qarzdor Moliya agenti tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasining 100 foizini tashkil etuvchi _____ (_____) so'm miqdoridagi pul mablag'ini (moliyash summasi) Mijozning bank hisob raqamiga o'tkazib berilgach, moliya agentining majburiyatlari to'liq bajarilgan hisoblanib, Qarzdor pul talabnomasining 100 foizini tashkil etuvchi _____ (_____) so'm miqdoridagi pul mablag'ini va **faktoring xizmati ko'rsatish uchun to'lanadigan haq** _____ so'm bilan birga ushbu shartnomaga ilova qilinadigan to'lov jadvalida belgilangan tartibda Moliya agentiga qaytarib to'lab beradi.

3. Shartnoma bahosi

3.1. Moliya agenti Mijozga boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasining 100 foizini tashkil etuvchi _____ (_____) so'm miqdorida faktoring xizmatini ko'rsatadi va moliyalash summasini Mijozning bank hisob raqamiga o'tkazib beradi. Faktoring hisobidan moliyalashtirish summasini Shartnoma imzolanganidan so'ng 3 kun muddat ichida Moliya agenti memorial order asosida Mijozning hisob raqamiga o'tkazib beradi. Bunga Qarzdor va Mijoz ushbu shartnomani tasdiqlash orqali o'z roziligini bildiradi.

3.2. Faktoring so'ndirilishi Qarzdor "to'lov topshiriqnomasi", Moliya agenti tomonidan mustaqil holda "memorial order" orqali yoki akseptsiz "to'lov talabnomasi" va yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa to'lov usullari orqali amalga oshiriladi.

4. Tasdiqlash va kafolatlar berish

4.1 Mijoz va Qarzdor yuridik shaxs-tadbirkorlik subyektini bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro'yxatdan o'tkazilgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatga egaligini, ushbu shartnomani tuzish uchun barcha zaruriy ruhsat av roziliklarga ega ekanliklarini tasdiqlaydirlar.

4.2 Mijoz va Qarzdor Moliya agentga taqdim etgan ushbu shartnomani tuzish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy hujjatlar haqiqiyliigi, ma'lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to'g'riligini kafolatlaydi.

4.3 Qarzdor va Mijoz muddati o'tgan qarzlarning yo'qligini kafolatlaydi.

4.4 Mijozning pul talabnomalarini topshirish huquqi quyidagi hujjatlarning nusxalari bilan tasdiqlanadi: _____ .

4.5 Mijoz va Qarzdor ular o'rtasidagi shartnomada va kelishuvlarida uchinchi shaxsga Pul talabnomalaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechishni taqiqlash yoki cheklash to'g'risida hech qanday kelishuv mavjud emasligiga kafolat beradi.

4.6 Mijoz qarzdor bilan tuzgan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda, qarzdor moliya agentiga o'tgan pul talabnomasi bo'yicha to'langan summalarni moliya agentidan qaytarib berishni talab qilishga haqli emasligini tasdiqlaydi.

4.7 Qarzdor Mijoz bilan tuzgan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda, qarzdor moliya agentiga o'tgan pul talabnomasi bo'yicha to'lagan summalarni moliya agentidan qaytarib

berishni talab qilishga haqli emasligini tasdiqlaydi.

4.8 Mijoz va Qarzdor Moliya agentiga o'rtalarida tuzilgan shartnomada taraflarning huquq va majburiyatlari buzilmaganligini, shartnoma to'liq qonunchilik hujjatlariga asoslangan holda tuzilganligini kafolatlaydi.

4.9 Shartnoma tuzayotgan vaqtda, Mijoz va Qarzdor xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarning to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emasligini, shartnoma va hisob-fakturalar yo'lgan, ya'ni fiktiv emasligini, qonuniy jihatdan to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

4.10 Tasdiqlash va kafolatlar berish bo'limiga, Mijoz va Qarzdor to'liq amal qilishi lozim. Ushbu bo'limga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda moliya agenti Mijozga faktoring xizmati ko'rsatishdan bosh tortishga haqli.

4.11 Mijoz va Qarzdor bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning 15-bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, Mijozning yuridik manzili _____, telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami), Qarzdorning yuridik manzili _____ telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami).

4.12 Moliya agenti bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning 15-bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

4.13 Moliya agenti oldida Qarzdor barcha to'lovlarini ushbu shartnoma belgilangan to'lov bilan birga Moliya agentiga qaytarish yuzasidan to'liq javobgar va mas'ulligini tasdiqlaydi.

5. Mijozning huquq va majburiyatlari

5.1 Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1 Faktoringdan foydalanish, uni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Moliya agentiga murojaat qilish;

5.1.2 Shartnoma va qo'shimcha shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;

5.1.3 Ushbu shartnoma tuzilgandan keyin pul mablag'lari tegishli tartibda o'tkazilgunga qadar faktoring xizmatidan bepul asosda voz kechish;

5.1.4 Faktoring ajratish jarayoni yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to'g'risida Moliya agentidan maslahatlar olish;

5.1.5 Moliya agenti tomonidan shartnomada ko'zda tutilgan faktoring uzrli sabablarsiz yoki kechiktirib ajratilgani uchun neustoyka to'lashni talab qilish;

5.1.6 Qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash.

5.1.7 Mijoz tomonidan tovarlar (xizmatlar) yetkazib berilib, Qarzdor tomonidan tasdiqlangan hisob-fakturalar asosida Bank tomonidan Mijozning pul talab huquqi sotib olinib, moliyalashtirish summasi Mijozga to'liq o'tkazilgan paytdan boshlab Mijozning moliya agenti oldida majburiyatlari yakuniga yetadi, barcha to'lovlar qarzdor tomonidan moliya agentiga to'lab boriladi, ushbu shartnomada nazarda tutilgan holar bundan mustasno;

5.2 Mijozning majburiyatlari quyidagilar:

5.2.1 Faktoring muddatida, Moliya agentiga Qarzdor tomonidan to'lov jadvaliga asosan to'langan pul mablag'lari, ushbu shartnomaga asosan to'lovni talab qilish huquqi olingan jami summasidan kam bo'lib chiqsa, Mijoz qarzning qoldig'i uchun solidar tartibda javobgar bo'ladi;

5.2.2 Mijoz ushbu shartnomaga ko'ra, Qarzdor bilan tuzilgan shartnomani va yoki hisob-fakturalarni har qanday vaziyat va holatga ko'ra bekor qilgan taqdirda Moliya agenti oldida Qarzdor bilan birgalikda solidar tartibda qoplanmagan qarzdorlikni birgalikda qoplashga javobgar ekanligini, bu holatda Qarzdorning hisob raqamida mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda Moliya agentiga qonunchilikda belgilangan tartibda unga tegishli bo'lgan barcha banklardagi hisob raqamidan pul mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish(undirish) huquqini beradi va buni ushbu shartnomani imzolash orqali tasdiqlaydi.

5.2.3 Agarda Qarzdor tomonidan adashmovchilik yoki ushbu shartnomaga asosan voz kechilgan pul talabi bo'yicha Mijozning bankdagi talab qilib olinguncha hisob raqamiga to'lov amalga oshirgan taqdirda, Mijoz ushbu mablag'ni kelib tushgandan so'ng 1 (bir) bank ish kuni ichida to'liq faktoring bo'yicha qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltiradi.

5.2.4 Mijoz agenti oldida boshqa shaxs foydasiga voz kechishning predmeti bo'lgan pul talabnomasining haqiqiyliги va Qarzdorning Mijozga nisbatan hisobga olish bo'yicha muqobil talablari bo'lgan talablarni Moliya agenti foydasiga voz kechilgan taqdirda javobar bo'ladi.

5.2.5 Qarzdor bilan almashadigan barcha hujjatlarning o'z muhri bilan tasdiqlangan nusxalarini bunday hujjatlar yuborilgan yoki qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agentiga taqdim etish;

5.2.6 Tegishli so'rov olingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agentining talabiga binoan Qarzdor to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni yozma ravishda, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasi bo'yicha boshqa hujjatlarni taqdim etish;

5.2.7 Moliya agentiga o'ziga ma'lum bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni zudlik bilan yozma ravishda xabar berish:

- Qarzdorning to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasini bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar to'g'risida;

- Qarzdor biron-bir sababga ko'ra o'z to'lov majburiyatlari bo'yicha qisman yoki to'liq nizolashgan holatlar to'g'risida;

- boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasiga yoki uning ta'minotiga nisbatan uchinchi tomon huquqi kuchga kirgan yoki unga uchinchi shaxslar talabgor bo'lgan holatlar to'g'risida;

- ushbu Shartnomaning predmeti bo'lgan majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi o'zida ham, Qarzdorda ham huquqiy va/yoki iqtisodiy tuzdagi barcha o'zgarishlar to'g'risida, hatto bu o'zgarishlar faqat ayrim majburiyatlarga ta'sir ko'rsatgan hollarda ham;

5.2.9. Moliya agentining yozma rozilgisiz Kontrakt shartlariga boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasining parametrlariga ta'sir ko'rsatadigan o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritmaslik;

5.2.10. Mijoz boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi bo'yicha Moliya agenti tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun barcha zarur tushuntirishlarni beradi;

5.2.11. Qarzdor bilan tuzgan shartnomasidan kelib chiqadigan talabnomalardan boshqa shaxs foydasiga voz kechmaslik va garovga qo'ymaslik;

5.2.13. Kontraktdan yoki shartnomadan kelib chiqadigan Pul talabnomalari garovini amalga oshirmaslik, bunda Pul talabnomasining huquqi Moliya agenti foydasiga voz kechiladi.

6. Qarzdorning huquq va majburiyatlari

6.1 Qarzdor quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1 Faktoring bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Moliya agentiga murojaat qilish;

6.1.2 shartnoma va qo'shimcha shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;

6.1.3 Mijoz tomonidan Qarzdorga nisbatan o'z majburiyatlari bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida qaytarilishini talab qilishi mumkin bo'lgan har qanday pul majburiyatlarini kimga to'laganligidan qat'iy nazar Moliya agentdan talab qilmaydi balki Mijozdan talab qiladi;

6.1.4 Qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash.

6.1.5 Garov ta'minoti yuzasidan baholovchi va sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyoriga asosan tanlash;

6.1.6 faktoringni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Moliya agentining mansabdor

shaxslariga murojaat qilish, shuningdek, bitim va faktoring shartnomalarni imzo qo‘ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o‘zi bilan olib ketish;

6.1.7 shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag‘lari olingunga qadar bo‘lgan davrda faktoring olishdan bepul asosda voz kechish;

6.1.8 istalgan vaqtda jarima sanksiyalarsiz faktoringni to‘liq yoki qisman muddatidan oldin so‘ndirish.

6.2 Qarzdorning majburiyatlari quyidagilar:

6.2.1 Mijoz va Qarzdor o‘rtasida “___”_____ 20__yilda tuzilgan _____-sonli kontrakt/shartnoma bo‘yicha _____ so‘m miqdoridagi qarzdorlikni to‘liq tan oladi va mazkur shartnoma asosida ushbu qarzdorlik bo‘yicha to‘lovni talab qilish huquqi Moliya agentiga o‘tganligini tan olib shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to‘lov jadvali asosida so‘zsiz tartibda to‘lab beriladi. Agar qarzdorlikni to‘lash muddati kechiktirilgan taqdirda o‘zining asosiy va ikkilamchi hisob raqamlariga so‘zsiz (akseptsiz) tartibda qonunchilikda va ushbu shartnoma, bosh kleishuvda belgilangan tartibda undirib olinishiga o‘z roziligini bildiradi.

6.2.2 Agar Qarzdorning asosiy hisobvarag‘i boshqa bankda joylashgan bo‘lsa, Qarzdor ushbu Shartnoma bo‘yicha moliyalashdan oldin Moliya agentiga uning asosiy hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatuvchi bank bilan pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarish to‘g‘risida tuzilgan kelishuvning nusxasini taqdim etish majburiyatini oladi.

6.2.3 Qarzdorlik to‘lash bo‘yicha to‘lov jadvaliga asosan belgilangan muddatlarda jami **??creditnumber?? (??creditnumber??)** so‘m miqdoridagi faktoring summasini va **faktoring xizmati ko‘rsatish uchun to‘lanadigan haqni** Moliya agentiga to‘lab berish;

6.2.4 Qarzdor va Moliya agenti o‘rtasida tuzilgan _____ kungi _____-sonli bosh kelishuv shartnomasida belgilangan o‘zining majburiyatlarini to‘liq va lozim darajada bajarish

6.2.5 Faktoring bo‘yicha to‘lovlar muddatida amalga oshirilmagan taqdirda Qarzdor Moliya agentiga qonunchilikda belgilangan usullarda unga tegishli bo‘lgan barcha banklardagi hisob raqamidan pul mablag‘larni akseptsiz hisobdan chiqarish(undirish) huquqini beradi;

6.2.6 Majburiyatlar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, muddati o‘tgan har bir kun uchun moliya agenti tomonidan hisoblangan neustoykalarni (penya) to‘lab berish;

6.2.7 O‘zbekiston Respublikasi Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, moliya agentining so‘roviga asosan ma‘lumot/hujjat, tushuntirish taqdim qilish.

6.2.8 Qarzdor o‘z mablag‘lari (kapitali) kamayishiga olib keladigan operatsiyalarni (dividend to‘lash, ustav kapitalini kamaytirish va boshqalar) Moliya agentining tegishli roziligini olgandan so‘nggina amalga oshiradi.

6.2.9 Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasining summasini to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarish;

6.2.10 Pul talabnomasining miqdoriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan Kontrakt yoki shartnoma shartlariga Moliya agentining yozma roziligisiz o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritmaslik.

6.2.11 to'lov qobiliyatiga nisbatan salbiy holatlar yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasini to'lamaslikka olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar to'g'risida Moliya agentiga zudlik bilan xabar berish.

6.2.12 Mijoz bilan tuzilgan shartnoma va ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining aniq va qat'iy bajarilishini ta'minlash.

6.2.13 Mijoz bilan almashadigan barcha hujjatlarning o‘z muhri bilan tasdiqlangan nusxalarini bunday hujjatlar yuborilgan yoki qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agentiga taqdim etish;

6.2.14 Tegishli so'rov olingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida Moliya agentining talabiga binoan Mijoz to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni yozma ravishda, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasi bo'yicha boshqa hujjatlarni taqdim etish;

6.2.15 Moliya agentiga o'ziga ma'lum bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni zudlik bilan yozma ravishda xabar berish:

- to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasini bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar to'g'risida;

- biron-bir sababga ko'ra o'z to'lov majburiyatlari bo'yicha qisman yoki to'liq nizolashgan holatlar to'g'risida;

- boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan pul talabnomasiga yoki uning ta'minotiga nisbatan uchinchi tomon huquqi kuchga kirgan yoki unga uchinchi shaxslar talabgor bo'lgan holatlar to'g'risida;

- ushbu Shartnomaning predmeti bo'lgan majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi o'zida ham, huquqiy va/yoki iqtisodiy tUSDagi barcha o'zgarishlar to'g'risida, hatto bu o'zgarishlar faqat ayrim majburiyatlarga ta'sir ko'rsatgan hollarda ham;

6.2.16 Moliya agentining talabiga binoan, unga mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni yuborish, unga ko'ra Moliya agenti Mijoz bilan tijorat munosabatlarining holatini kuzatishi mumkin.

6.2.17 Qarzdor ushbu shartnomaga ko'ra, Mijoz bilan tuzilgan shartnomani va yoki hisob-fakturalarni har qanday vaziyat va holatga ko'ra bekor qilgan taqdirda Moliya agenti oldida Mijoz bilan birgalikda solidar tartibda qoplanmagan qarzdorlikni to'liq birgalikda qoplashga javobgar ekanligini, bu holatda Moliya agentiga qonunchilikda belgilangan tartibda unga tegishli bo'lgan barcha banklardagi hisob raqamidan pul mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish(undirish) huquqini beradi va buni ushbu shartnomani imzolash orqali tasdiqlaydi.

6.2.18 Qarzdor majburiyatlarni ta'minlash maqsadida _____kungi_____sonli Bosh kelishuvga asosan quyidagi ta'minotlarni taqdim qilgan:

6.2.18. Bosh kelishuvga asosan taqdim etilgan ta'minot ushbu faktoring shartnomasi va yana bosh kelishuv doirasida tuzilishi mumkin bo'lgan boshqa uch taraflama faktoring shartnomalarini ham ta'minoti bo'lib hisoblanadi va bu to'g'risida Qarzdor va Moliya agenti o'rtasida tuzilgan _____ kungi _____-sonli bosh kelishuv shartnomasida kelishilgan.

7. Moliya agentining huquq va majburiyatlari

7.1 Moliya agenti quyidagi huquqlarga ega:

a) Mijozga faktoring summasidan moliyalash summasini taqdim etish;

b) Faktoringni so'ngidirish uchun to'lovni Qarzdorning to'lov topshiriqnomasi yoki muddati kelganda Moliya agenti tomonidan mustaqil holda memorial orderi orqali yechib olish.

c) Shartnomaning 1 va 2-ilovalari barcha tomonlar tarafidan imzo/akseptlanmagan holda, faktoring bo'yicha mablag'larni o'tkazmaslik;

d) Mijozdan pul talabnomasining haqiqiyiligini tegishli hujjatlar asosida isbotlab berishni talab qilish;

e) Qarzdor tomonidan to'lov talabnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda Qarzdorga nisbatan amaldagi qonunchilikka asosan da'vo qo'zg'atish;

f) Moliya agentiga pul talabnomasini topshirish huquqi berilgandan so'ng, Qarzdor bu huquqni bajarmaslikka haqli bo'ladigan vaziyatlardan bexabar bo'lsa, boshqa shaxs foydasiga voz kechish narsasi bo'lgan pul talabnomasiga nisbatan huquqini saqlab qolish;

g) Mijozni va Qarzdorni lozim darajada tekshirish bilan bog'liq bo'lgan to'liq yoki qisman xorijiy

tilda tuzilgan hujjatlar davlat tiliga yoki rus tiliga tarjimasini bilan talab qilish, gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar alomatlarini mavjud operatsiyalar bajarilganda operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni, jumladan pul mablag'lari manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yuzasidan Mijozga murojaat qilish hamda taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalari taqdim qilinishini talab qilish;

h) Qarzdor yoki Mijozlarni ogohlantirmasdan pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqini boshqa shaxslarga har qanday usulda o'tkazish;

i) Mazkur shartnomada belgilangan to'lovlar o'z vaqtida to'liq amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilayotgan mablag'larni Qarzdordan akseptsiz talabnoma qo'yish orqali undirish shu bilan birga barcha undirish choralari ko'rishga haqli;

j) Mijoz va yoki Qarzdor tomonidan atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda, Mijoz va Qarzdor joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha o'rganish, yuridik shaxs Mijoz va Qarzdorning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda faktoring amaliyotini to'xtatib qo'yish.

k) Shartnomaga asosan yon berilgan talabnomalar (hisob faktura va b.) bo'yicha ma'lumotni (xabarnoma va/yoki bildirishnoma)larni garov reestriga kiritish.

l) Mijoz (Qarzdor) mazkur faktoring shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarini 60 (oltmish) kun davomida bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida jami qarzdorlik (muddatli va muddati o'tgan) summalarini muddatidan oldin undirish va undiruvni garovdagi mulkka, ta'minotlarga qaratish yuzasidan sudga murojaat qilishra haqli.

m) Qarzdor tomonidan ushbu shartnoma va bosh kelishuvda belgilangan majburiyatlarini bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida bu holat shartnomani jiddiy buzish deb hisoblanadi; bunda Moliya agenti jami barcha shartnomalar bo'yicha qarzdorlikni va boshqa zararlarini muddatidan oldin undirish va undiruvni garovdagi mulkka, ta'minotlarga qaratish yuzasidan sudga murojaat qilishga haqli .

7.2 Moliya agentining majburiyatlari quyidagilar:

a) Pul mablag'larini mazkur shartnoma bo'yicha huquqlar vujudga kelgandan so'ng hamda vujudga kelgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar Mijoz tomonidan taqdim qilingach 5 (besh) bank ish kuni davomida Mijozning talab qilib olguncha depozit hisob raqamiga o'tkazib berish;

8. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

8.1 Moliya agenti faktoring to'lovlarini asossiz ravishda o'z vaqtida amalga oshirmagan taqdirda to'lov kechikkan har bir kun uchun Mijozga 0,2 foiz hajmida penya to'laydi. To'lanishi lozim bo'lgan penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

8.2 Mijoz va Qarzdor tomonidan shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, ya'ni Qarzdor tomonidan faktoring muddatida to'lov talabnomasi qoplanmagan qismiga nisbatan har bir kun uchun Moliya agentiga 0,2 % miqdorida penya to'laydi. To'lanishi lozim bo'lgan penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

8.3 Mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollarda Mijoz yoki Qarzdor tomonidan Moliya agentiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni taqdim etmaslik, majburiyatlarini lozim darajada

bajarmaslik, bo'yin tovlash kabi holatlar yuz berganda, moliya agenti moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga, voz kechishga bekor qilishga yoki mavjud aloqa kanallari orqali 3 (uch) ish kuni oldin ogohlantirgan holda shartnomani bir taraf lama bekor qilishga haqlidir.

8.4 Agar Mijoz tomonidan Moliya agenti foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi haqiqiy emas deb topilsa yoki Kontrakt va yoki shartnoma haqiqiy emas, tuzilmagan deb topilsa va unga bitimni haqiqiy emasligi oqibatlari qo'llanilsa, Mijoz va Qarzdor solidar tartibda Moliya agentiga ushbu Shartnoma bo'yicha u tomonidan haqiqatda olingan moliyalash summasini Moliya agentining tegishli talabi olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida o'tkazishi shart.

8.5 Agar Qarzdor tomonidan muqobil talablarini hisobga olish, Qarzdor tomonidan tovarni qaytarib yuborish (qaytarish), tovarning tasodifiy nobud bo'lishi yoki tasodifiy shikastlanishi xavfi Mijozdan Qarzdorga o'tkazilguniga qadar tovarning nobud bo'lishi/shikastlanishi natijasida, boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining summasi boshqacha kamaygan taqdirda, boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining summasi tegishli Reyestrda ko'rsatilgan summadan kam bo'lgan taqdirda, Mijoz Moliya agentiga bunday kamaygan vaqtdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining kamaygan summasini o'tkazib berishi kerak. Ushbu bandning qoidalari hech qanday sharoitda Mijoz va Qarzdorga Qarzdor tomonidan muqobil talablarni hisobga olish, tovarlarni qaytarib yuborish (qaytarish), boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi summasini boshqacha kamaytirish huquqini bermaydi. Ko'rsatilgan muqobil talablarni hisobga olish, tovarlarni qaytarib yuborish (qaytarish), boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi summasini boshqacha kamaytirish noqonuniy hisoblanadi va Moliya agenti ularning qonuniyligini belgilangan tartibda e'tiroz bildirishga haqlidir.

8.6 Qarzdor bilan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, shu jumladan Mijoz tomonidan yetkazib berilgan tovarlar/ bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifatiga doir yozma da'volar taqdim etilishi munosabati bilan har qanday nizo va kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Mijoz Qarzdorning bunday da'volari paydo bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Moliya agentiga tegishli boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasi summasiga teng summani o'tkazishi shart.

8.7 Agar boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining garovi, boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining uchinchi shaxslarning huquqlari bilan yuklanganligi, boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining taqiqqa (band solingan) olinganligi aniqlansa, Mijoz Moliya agentining tegishli talabini olgan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kunlari ichida Moliya agentiga, unga nisbatan garov faktlari aniqlangan, uchinchi shaxslarning huquqlari yuklangan va/yoki taqiqqa olingan va yoki band solingan tegishli boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan Pul talabnomasining summasiga teng summani o'tkazishi shart.

8.8 Mijoz ushbu Shartnomaning nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Moliya agenti kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni talab qilishga haqlidir.

8.9 Mijoz va Qarzdor tomonidan taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilingan taqdirda ham Moliya agenti oldidagi majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8.10 Tomonlar qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham javobgar bo'ladilar.

9. Alohida shartlar

9.1 Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartlari, talab qilinadigan pul summasi o'zgargan hollarda tomonlar bir-birlariga oldindan xabar beradilar. Bunda faktoring shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuziladi. Agar Mijoz/Qarzdor mazkur holatda shartnomani o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritishdan bosh tortgan tadirda, Moliya agentiga to'lanishi lozim

bo'lgan pul mablag'lari o'zgarmaydi.

9.2 Tomonlarning joylashgan manzili yoki taraflarni shartnomani bajarishga jiddiy ravishda ta'sir qiluvchi ma'lumotlar o'zgarsa, tomonlar bu haqda bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

9.3 Shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan kelishmovchiliklar chiqqan taqdirda kelishmovchiliklar o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Yagona kelishuvga erishilmagan hollarda tomonlar bir-birlarini xabardor qilib, vakolatli sudlarga murojaat etishlari mumkin.

9.4 Shartnomaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtalishi yoki bekor qilinishi mumkin:

a) tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq;

b) sud qaroriga asosan;

c) moliya agenti tashabbusi bilan, agar Mijoz yoki Qarzdor tomonidan shartnoma shartlari buzilsa.

9.5 Shartnoma bo'yicha qarzdor tomonidan to'lov qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan to'lovlarni amalga oshirish sanalari va oraliq to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda Moliya agenti to'lov jadvalini yangidan rasmiylashtirib, qarzdorga taqdim qilishi lozim. Bunda, faktoring to'lov jadvali (1-ilova) yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan to'lov jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

10. Boshqa shartlar

10.1 Mijoz va yoki Qarzdor tomonidan ma'lumot so'rab yozilgan tegishli murojaati bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida Mijozva yoki Qarzdor tomonidan berilgan ariza va unga faktoring xizmati ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida faktoring shartnomasi bo'yicha Mijoz tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

10.2 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

10.3 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

10.4 Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

10.5 Xabarni olgan tomon haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

10.6 Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

10.7 Shartnoma bajarilishida taraflar mazkur shartnoma shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

10.8 Mijoz va Qarzdorning xorijiy valutada pul mabg'lari olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valutada olingan kredit bo'yicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar Mijoz va Qarzdorning tavakkalchiligi hisoblanadi.

10.9 Qarzdorga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida Mijoz va Qarzdorning har qanday manbalardagi ma'lumotini tahlil o'tkazishga Qarzdor o'z roziligini beradi.

10.10 Mijoz va Qarzdor shartnoma asosida faktoring qarzdorliklari bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Mijoz va Qarzdor bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

11. Shartnomaning kuchga kirishi, o'zgartirish va bekor qilish tartibi

11.1 Mazkur shartnoma taraflar xohishiga ko'ra bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada yozma yoki elektron shaklda tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Moliya agentida, ikkinchi nusxasi Mijozda va uchinchi nusxasi Qarzdorda saqlanadi. Mijoz, Qarzdor yoki ularning vakolatli vakillariga shartnoma elektron yoki yozma imzolangan kunda shartnomaning bittadan asl nusxalari taqdim etiladi.

11.2 Shartnoma barcha taraflar tomonidan imzolangan yoki vakolatli shaxslarning elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

11.3 Shartnomaga kiritilayotgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar yozma yoki elektron shaklda shartnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi kelishuvni tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

11.4 Biron-bir tomon yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatini to'xtatsa yoki uning huquqiy holatida boshqa o'zgarishlarga duch kelsa, u ushbu shartnoma bo'yicha o'z faoliyatini (o'zgarishlarini) tugatgunga qadar boshqa tomon oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishi kerak, ushbu majburiyatlarning bajarilishi tugatilgan (o'zgartirilgan) tomonning huquqiy vorisi zimmasiga tushadigan hollar bundan mustasno.

11.5 Mijoz va Qarzdor o'rtasidagi Kontrakt va yoki shartnomani bekor qilish Tomonlarni ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarishdan va javobgarlikdan ozod qilmaydi.

12. Maxfiylik

12.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

12.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

12.3 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida boshqa tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

12.4 Moliya agenti o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilish maqsadida, Qarzdor moliya agentiga o'zi va Qarzdor to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

12.5 Mijoz, Qarzdor Moliya agentiga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida taqdim etgan o'zining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo'yicha huquqiy vorislik tartibida yoki moliya agent tomonidan uchinchi shaxslar bilan mazkur shartnomadagi huquqlari boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi tuzilgan taqdirda moliya agentining huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tadi, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi.

13. Fors-major

13.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar

tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

13.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

13.3 Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank kuni ichida bu haqda ikkinchi va uchinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

13.4 Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

14. Nizolarni hal qilish tartibi

14.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li (talabnoma va/yoki ogohlantirish xatlari yuborish) bilan hal etadilar.

14.2 O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida (agar muddat ko'rsatilmagan bo'lsa 10 kunlik muddat ichida) javob berishi lozim.

14.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xati tomonlarga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

14.4 Talabnoma yoki ogohlantirish xati yuborilgan taraf, ushbu xatda belgilangan muddatda javob bermagan taqdirda yoki unda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, huquqi buzilgan taraf O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Moliya agentining UB XO/MBO/BXO joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

14.5 Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

15. Taraflarning qayd etish ma'lumotlari va imzolari

MOLIYA AGENTI: CHEKI "Hamkorbank" ATB _____ bank xizmatlari ofisi Manzil: MFO: 00083 STIR: 200242936 Hisob raqam: _____ Aloqa markazi: 0 (800) 1-200-200, 1256 E-mail: contact@hamkorbank.uz Boshqaruvchi: _____ M.O'.	MIJOZ: Mijoz nomi: Manzil: MFO: STIR: Hisob raqam: Rahbari: Bosh hisobchi: M.O'.
QARZDOR: Qarzdor nomi: Manzil: MFO: STIR: Hisob raqam:	

Rahbari:

Bosh hisobchi:

M.O‘.